III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

2023- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 10 026,4 mlrd.so‘mni yoki 2022- yilning shu davriga nisbatan 106,4 foizni, shu jumladan, dehqonchilik, chorvachilik va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 9 762,6 mlrd.so‘mni (106,3 foiz), ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 0,1 mlrd.so‘mni (101,8 foiz), o‘rmonchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari 83,2 mlrd.so‘mni (100,1 foiz), baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari 180,5 mlrd.so‘mni (119,6 foiz) tashkil qildi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi va o‘sish sur‘atlari



Xususan, yuqori o‘sish sur‘ati Qo‘shko‘pir (126,0 foiz), Tuproqqal’a (107,6 foiz) tumanlari va Xiva (107,3 foiz) shahrida kuzatildi. Aksincha, eng past o‘zgarish Xonqa tumani (101,7 foiz) va Urganch shahrida (102,5 foiz) kuzatildi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari mahsulot (xizmat)larining hududlar kesimida taqsimlanishi (foiz hisobida)



Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida hududlar bo‘yicha yetakchilik qilayotgan tumanlarning ulushi Qo‘shko‘pir tumanida - 11,6 foiz, Urganch tumanida -11,3 foiz, Xonqa tumanida - 10,2 foiz, Shovot tumanida -9,9 foiz, Xazorasp tumanida-9,8 foiz, Bog‘ot tumanida - 9,7 foiz,ni tashkil etdi. Xiva shahrida -0,4, foiz Urganch shahrida - 2,2 foiz va Tuproqqal’a tumanida- 2,3 foiz ko‘rsatkich bilan keyingi o‘rinlarni egallashdi, eng kam ulush Xiva shahrida (0,4 foiz) qayd etildi.

Qishloq xo‘jaligi sohasida 2023-yilning yanvar-iyun oylarida 9 669,6 mlrd.so‘mlik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining o‘sishi 2022- yilning mos davriga nisbatan 106,2 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 110,7 foizni va chorvachilik mahsulotlari 104,7 foizni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar- iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



Viloyat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarida eng katta ulushni dehqon va tomorqa xo‘jaliklari egallagan bo‘lib, 2023- yil yanvar- iyun oylarida jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 79,9 foizini (2022- yil yanvar- iyun oylarida – 81,9 foiz) tashkil qildi. Fermer xo‘jaliklari tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 15,5 foizi ishlab chiqarilgan (2022- yil yanvar- iyun oylarida 15,8 foiz), shuningdek, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 4,6 foizi (2022- yil yanvar- iyun oylarida – 2,3 foiz) ishlab chiqarilgan.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilikning ulushi



Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi



2023- yilning yanvar- iyun oylarida 9 669,6 mlrd.so‘mga teng bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi va ushbu hajmning 2 361,8 mlrd.so‘mga teng qismi yoki 24,4 foizi dehqonchilik, 7 307,8 mlrd.so‘mga teng qismi yoki 75,6 foizi chorvachilik sohasiga to‘g‘ri keladi.

2023- yilning yanvar- iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishda Bog‘ot tumani (34,6 foiz), Yangibozor tumani (29,1 foiz), Tuproqqal’a tumanida (28,3 foiz) yuqori ko‘rsatkich qayd etildi. Urganch shahrida bu ko‘rsatkich 3,5 foiz bo‘lib, dehqonchilik mahsulotlari salmog‘ining kamayganligi qayd etildi.

Shuningdek, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori ko‘rsatkichlari Urganch shahrida (96,5 foiz), Gurlan tumanida (78,1 foiz), Hazorasp tumanida (77,8 foiz) qayd etildi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining hududlar hamda xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi



Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti ulushining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko‘rsatkichlar barcha tuman va shaharlarda dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi. 2023- yilning yanvar- iyun oylari yakunlariga ko‘ra, fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Yangibozor tumanida (26,3 foizi), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Urganch shahrida (99,2 foizi) va Xiva shahrida (94,8 foizi), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Bog‘ot tumanida (7,8 foizi) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich esa Bog‘ot tumani (11,0 foizi) va Xiva tumanida (14,2 foizi), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Yangibozor tumanida (72,2 foizi) hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Urganch shahrida (0,8 foizi) hamda Xiva tumanida (1,2 foizi) qayd etildi.

Dehqonchilik. 2023- yilning yanvar- iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlari umumiy hajmi 2361,8 mlrd.so‘mni yoki jami yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining 26,0 foizini tashkil qildi. 2022- yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur‘ati 110,7 foizni, jumladan, fermer xo‘jaliklarida 1196,7 mlrd.so‘mni (116,3 foiz), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 1010,0 mlrd.so‘mni (101,0 foiz), qishloq xo‘jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 155,1 mlrd so‘mni (150,3 foiz) tashkil qildi.

Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni hududlar kesimida xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



Hosil yig‘imi. 2023- yilning yanvar - iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 309 801 tonna boshoqli don (116,7 foiz), shundan 304 100 tonna bug‘doy (117,1 foiz), 68 917 tonna kartoshka (103,0 foiz), 100 125 tonna sabzavot (106,4 foiz), 9 601 tonna poliz (108,1 foiz), 37 632 tonna meva va rezavorlar (108,7 foiz), 1 146 tonna uzum (109,5 foiz) yetishtirildi.



Chorvachilik. 2023- yilning yanvar - iyun oylarida chorvachilikda ishlab chiqarilgan mahsulotlar umumiy hajmi 7 307,8 mlrd so‘mni yoki 2022- yilning shu davriga nisbatan 104,7 foizni, jumladan, fermer xo‘jaliklarida 304,1 mlrd so‘mni (107,7 foiz), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 6 712,2 mlrd so‘mni (102,1 foiz), qishloq xo‘jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 291,5 mlrd so‘mni (2,5 marta ko‘p) tashkil qildi.

Viloyat tumanlarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi (foiz hisobida)



2023 - yilning 1 - iyul holatiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 101,2 foizni (jami 948,6 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan, sigirlar 101,9 foizni (357,2 ming bosh), qo‘y va echkilar 104,9 foizni (481,2 ming bosh), otlar 102,0 foizni (5,5 ming bosh), parrandalar 108,6 foizni (6824,7 ming bosh) tashkil qildi.

Chorva mollari va parrandalar bosh sonida xo‘jaliklar toifalarining ulushi
2023- yilning 1- iyul holatiga



Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go‘sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o‘sishi asosan dehqon va fermer xo‘jaliklari hisobiga bo‘lib, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 91,6 foizni, sut ishlab chiqarishda 99,5 foizni, tuxum ishlab chiqarishda 79,4 foizni tashkil etdi.

2023- yil yanvar - iyun oylarida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo‘jaliklar toifalarining ulushi



2023- yil 1- iyul holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni

	ming bosh	*o'sish sur'ati, %*
Yirik shoxli qoramol	**948,6**	**101,2**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	73,6	109,5
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	861,3	100,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	13,7	145,0
***ulardan:* sigirlar**	**357,2**	**101,9**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	30,0	110,9
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	322,2	100,5
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	5,0	170,7
Qo'y va echkilar	**481,2**	**105,0**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	81,0	113,2
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	369,0	100,5
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	31,2	156,2
Otlar, *bosh*	**5541**	**102,0**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklari	765	111,8
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	4714	100,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	62	124,0
Parrandalar	**6824,7**	**108,6**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	1015,0	115,0
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	3888,9	100,4
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	1920,8	125,6

2023- yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari

	miqdori	*o'sish sur'ati, %*
Go'sht (tirik vaznda), *ming tonna*	**97,2**	**109,1**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	2,9	107,7
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	86,2	100,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	8,1	15,1 m.
Sut, *ming tonna*	**564,7**	**100,5**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	25,2	108,3
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	536,5	100,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	3,0	120,0
Tuxum, *mln dona*	244,4	100,1
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	22,8	109,4
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	171,2	102,8
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	50,4	88,5
Jun, *tonna*	**638**	**104,9**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	84	106,3
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	536	101,7
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	18	9,0 m.
Qorako'l teri, *dona*	**5933**	**102,6**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	535	110,8
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	5334	101,7
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	64	114,3

2023- yilning yanvar- iyun oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 1500,8 mlrd.so‘mni yoki 2022- yilning tegishli davriga nisbatan 114,7 foizni tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi 15,5 foizni tashkil etdi.

Fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlanishi (foizda)



2023- yilning 1- iyul holatiga fermer xo‘jaliklarida 73,6 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan, 30,0 ming bosh sigir, 81,0 ming bosh qo‘y va echki, 765 bosh ot, 1015,0 ming bosh parranda mavjud bo‘lib, 2022 - yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 109,5 foizni, shu jumladan, sigirlar 110,9 foizni, qo‘y va echkilar 113,2 foizni, otlar 111,8 foizni, parrandalar 115,0 foizni tashkil qildi.

2023 - yilning yanvar-iyun oylarida fermer xo‘jaliklarida asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish

	yanvar-iyun				*2022- yanvar-iyun oylariga nisbatan foiz hisobida*
	2022- yil		*2023- yil*		
	tonna	*umumiy hajmidagi ulushi, foiz*	*tonna*	*umumiy hajmidagi ulushi, foiz*	
Sabzavot	15587	16,5	18324	18,3	117,6
Go‘sht, tirik vaznda	2657	3,0	2861	2,9	107,7
Sut	23233	4,1	25170	4,5	108,3
Tuxum, *ming dona*	20841	8,5	22794	9,3	109,4
Jun, *tonna*	79	13,0	84	13,2	106,3
Qorako‘l, *dona*	483	8,6	535	9,0	110,8

2023 - yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Jami don *(tonna)*

Jami viloyat bo‘yicha

310 507



Boshoqli don *(tonna)*

Jami viloyat bo‘yicha

309 801



Bug‘doy *(tonna)*

Jami viloyat bo‘yicha

304 100



Kartoshka *(tonna)*

Jami viloyat bo‘yicha

68 917



2023 - yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sabzavot *(tonna)*
Jami viloyat bo‘yicha
100 125



Poliz *(tonna)*
Jami viloyat bo‘yicha
9 601



Meva va rezavorlar
(tonna) ***Jami viloyat bo‘yicha*** **37 632**



Uzum *(tonna)*
Jami viloyat bo‘yicha
1 146



2023- yil 1- iyul holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parrandalar bosh soni

Yirik shoxli qoramollar *(bosh)*
Jami viloyat bo'yicha **948 580**



shu jumladan, sigirlar (bosh)
Jami viloyat bo'yicha **357 187**



Qo'ylar va echkilar *(bosh)*
Jami viloyat bo'yicha
481 151



Parrandalar *(ming bosh)*
Jami viloyat bo'yicha
6824,7



2023 - yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Go‘sht *(ming tonna)*
Jami viloyat bo‘yicha 97,2



Sut *(ming tonna)*
Jami viloyat bo‘yicha 564,7



Tuxum *(mln dona)*
Jami viloyat bo‘yicha 244,4



Jun *(tonna)*
Jami viloyat bo‘yicha 638



Baliq (tonna)
Jami viloyat bo‘yicha 7679,5



2023- yil 1- iyul holatiga hududlar kesimida fermer xo‘jaliklari, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar soni

Shahar va tumanlar nomi	Fermer xo‘jaliklari, soni	Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi yirik tashkilotlar,soni	Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi mikrofirma va kichik korxonalar, soni
Bog‘ot	359	2	74
Gurlan	434	4	174
Qo‘shko‘pir	427	1	55
Urganch	386	5	99
Hazorasp	370	1	29
Tuproqqal‘a	224	2	46
Xonqa	511	2	123
Xiva	322	5	47
Shovot	557	1	30
Yangiariq	312	4	48
Yangibozor	466	1	54
Urganch sh	-	8	21
Xiva sh	-	1	20
Viloyat jami	**4368**	**37**	**820**

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo‘jaliklarida, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Dehqonchilik mahsuloti – hisobot davrida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko‘p yillik yosh ko‘chatlarni o‘stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatlarining o‘zgarishi yig‘indisidir.

Chorvachilik mahsuloti – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o‘stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish qiymatlarini o‘z ichiga oladi.Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

O‘rmon xo‘jaligi – o‘rmon va o‘rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. O‘rmon xo‘jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o‘rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzluksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong‘inga qarshi dasturlarni ishlab chiqish kiradi. O‘rmon xo‘jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag‘ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko‘chatlarini olish va yetishtirish ham hisobga olinadi. Shuningdek, yovvoyi holda o‘suvchi qo‘ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong‘oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

Baliqchilik xo‘jaligi – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohalarining mahsuloti va ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini, shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish, zaxiralarni ko‘paytirish va yaxshilashni o‘z ichiga oladi.

Fermer xo‘jaliklari - ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.